ZAMONAVIY LINGVISTIK TERMINLAR TAVSIFI

G`ofurova Barchinoy Xursanboy qizi
Andijon davlat universiteti 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: ushbu tezisda tilshunoslikning zamonaviy yo`nalishlaridan biri kognitiv tilshunoslikka oid lingvistik terminlar tavsifi bayon etiladi.

Kalit so`zlar: kognitiv tilshunoslik, freym, geshtalt, konsept, kategoriyalash, ssenariy, skript, slotlar.

Barcha sohalarda bo`lgani kabi tilshunoslikning ham bugungi kunning talablari va ehtiyojlari asosida rivojlanayotgan zamonaviy tilshunoslik yo`nalishlari mavjuddir. Zamon va makondagi o`zgarish va yangiliklar tilga bevosita o`z ta’sirini o`tkazadi. Lingvistika bu so`zning asosi *ligua* bo`lib, til degan ma’noni anglatadi. O`zbek tilidagi muqobili esa tilshunoslik. Bu ikki termin bir-biri bilan o`zaro sinonimik munosabat hosil qiladi. Zamonaviy tilshunoslik yo`nalishlari quyidagilarni tashkil etadi:

Kognitiv lingvistika, pragmalingvistika, lingvokulturalogiya, kompyuter lingvistikasi, matematik lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, paralingvistika, ekstralingvistika, diaxron lingvistika, sinxron lingvistika, statik lingvistika, dinamik lingvistika, neyrolingvistika, etnolingvistika va boshqa bir qator yo`nalishlar va ular o`z ichida yana bir qancha tarmoqlarga bo`linib ketadi. Bu sohalarning rivojlanishi natijasida ularning mohiyati va asosini ochib beruvchi terminlar ham shakllana boradi. Ular orqali bu yo`nalishlarni tushunish oydinlashib boradi. Masalan, kognitiv tilshunoslik shakllanishi orqali shu bilan bog`liq tushunchalar kognitivlik, turkumlashtirish, konseptualizatsiya, kognivitizm, kulturologik, lingvokulturologik, mantqiy, falsafiy-semiotik; kognitiv semantika, kognitiv grammatika, kognitiv fonologiya, konsept, ssenariy, slotlar, skript, freym, geshtalt kabi terminlar bor.

Dastlab kognitiv tilshunoslik va unga doir terminlarga murojaat qilamiz.

Biz o`zimizni qurshab turgan olamni aql va tafakkurimiz bilan idrok etamiz. Til va ong o`rtasidagi munosabatlar muammolarini, dunyoni konseptuallashtirish va

turkumlashtirishda tilning ro`li, kognitiv jarayonlarda va inson tajribasini umumlashtirishda, insonning individual kognitiv qobiliyatlari bilan bog`liqligini va til va ularning o`zaro ta’siri shakllarini o`rganadigan tilshunoslik yo`nalishi – *kognitiv tilshunoslik.* Bu terminning mazmuni inglizcha “cognivite – bilishga oid” so`zi bilan bog`liq.

Turkumlashtirish – olingan bilimlarni tartibga solish jarayoni tushuniladi, ya’ni yangi bilimlarni inson ongid mavjud bo`lgan ma’lum sarlavhalar bo`yicha taqsimlash va bu ko`pincha bir shaxs ona tili bo`lgan til toifalari bilan belgilanadi.

Konseptualizatsiya – bu real yoki xayoliy olamning ba’zi bir hodisasining kognitiv xususiyatlari to`plamini aniqlash jarayoni bo`lib, ular odamga ushbu hodisa haqidabiroz aniqlngan tushuncha va g`oyaga ega bo`lish, yodda tutish va yangi ma’lumotlar bilan to`ldirish imkonini beradi.

Kognivitizm – bu fikrlash jarayonlarini boshqaradigan umumiy tamoyillarni o`rganishni birlashtirgan fanlar majmuidir.

Kulturologik – madaniyat elementlari sifatidagi tushunchalarni turli fanlar ma’lumoti asosida o`rganish.

Lingvokulturologik – til birliklari tomonidan milliy til madaniyatining elementlari sifatida atalgan tushunchalarni milliy qadriyatlar va ushbu madaniyatning milliy xususiyatlari bilan bog`liq holda o`rganish.

Mantiqiy – tushunchalarni ularning lingvistik shakliga bevosita bog`liqliksiz. mantiqiy usullar bilan tahlil qilish.

Semantik-kognitiv – tilning leksik va grammatik semantikasini tushunchalar mazmuniga kirish vositasi sifatida, ularni til semantikasidan konsepsiya sohasiga modellashtirish vositasi sifatida o`rganish.

Falsafiy va semiotik – belgining kognitiv asoslari o`rganiladi.

Konsept – lotin tilidagi “conceptus” – tushuncha so`zining kalkasidir. Konsept rus tilshunosligida XX asrning 1-choragida faylasuf S.Askoldov tomonidan ilmiy muomalaga kiritildi. Konsptga taniqli rus tilshunosi V.A.Maslova quyidagicha ta’rif bergan: bu lingvomadaniy o`ziga xoslik qayd etilgan va muayyan etnomadaniyat galarini u yoki bu tarzda tavsiflovchi semantik tuzilmadir.

Ssenariy – biror bir tipik hodisaga xos o`zaro bog`liq faktlarning ularning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl misolida yoritilishidir. Ushbu namunaviy struktura ma’lum voqelik bo`lagiga oid harakatlar, holatlar uzviy munosabatlaridan iborat. Ssenariy (scenarios) tushunchasini kognitologiyaga oid tadqiqotlar doirasiga birinchilardan bo`lib, sun’iy intellekt bo`yicha mutaxassislar R. Shenk va R. Abelsonlar kiritishgan [S. Chank.et.al.1975] ularning talqinicha, ushbu tushuncha voqealar ketma-ketligini, ularning oo`zaro bog`lanishini ko`rsatish uchun zarur. *Slotlar* – har bir ssenariy tarkibidagi kichik mazmundagi qismlar.

Skript – inglizcha script so`zining tub ma’nosi “qo`lyozma, yozuv” namunaviy konseptual tuzilmalarning bir turi sifatida qaralib, u inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi voqelarning me’yoriy ketma-ketligi namunasidir. Skript tarkibiga kiruvchi voqealarning sabab-oqibat munosabatlari asosida tizimiy bog`lanishi, ketma-ketligi hamda ushbu voqealarning streotip takrorlanuvchanlik xususiyati uning asosiy tavsifi belgisi sifatida qaraladi. [Shank and Abelson. 1977]

Freym – inglizcha “frame”, “karkas” “ramka”, “skelet” ma’nolarini anglatadi. Dastlab “freym” termini XX asrning 70-yillarida Marvin Menskiy tomonidan freymni “andozali voqelik holatini aks ettiruvchi axborot strukturasi” deb ta’riflaydi[Minsky 1975: 212; Минский 1979]. Freym tushunchasini tilshunoslikka birinchi bo`lib, CH. Filmor tadbiq etdi. Filmor freym tajribani andozaga soluvchi kognitiv tuzilma bo`lib, ushbu tuzilma lisoniy birliklar vositasida shakllanadi.

Geshtalt – olmoncha gestalt (obraz, sruktura,yaxlit shakl) so`zidan olingan bo`lib, ushbu tushuncha ruhiy tuzilmalar, obrazlarning o`ziga xos yaxlitlikni ta’minlovchi belgi va xususiyatlarining umumlashmasini anglatadi. Geshtalt nazariyasining asoschilaridan biri Maks Vertxaymer ushbu muammoni quyidagicha bayon qilgan edi: «…mavjud bog`liqliklar asosida yuzaga keladigan yaxlitlik avval alohida bo`laklar ko`rinishidagi elementlarning keying jamlanishidan iborat bo`lmasdan, balki ushbu yaxlitlikning ichki strukturaviy qonuniyatlari bilan belgilanadi»[Vertxaymer 1987:6] Har bir sohaning mohiyatini ochib beruvchi terminlar hisoblanadi. Bu esa fandagi muammolarni bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`rxati:

1. Д.Попова, Н. А.Стернин, Когнитивная лингвистика. Монография.. – АСТ: «Восток – запад». 2007 – 314с. – ISBN 9785170451036

2. N.Mahmudov, Til tilsimi tadqiqi. Toshkent. “Mumtoz so`z” 2017. 60-bet.

3. Safarov. Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax – 2006. 25-bet.

4. H.Dadaboyev, Z.T. Xolmonova Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi //o`quv qo`llanma. T.: “Tafakkur Bo`stoni”, 2015. 150-b.

5. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug`ati .T – 1985. 158. 81-bet

6. A. Nurmonov. O`zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent –“O`zbekiston”-2002. 156-b.

7. A. Nurmonov «Tanlangan asarlar. I jild». «Akademnashr» nashriyoti, 2012-yil.